

SHARQSHUNOSIK
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ
ORIENTAL STUDIES

4

2024

ILMIY JURNAL
ISSN 2181-8096



ISSN 2181 – 8096



SHARQSHUNOSLIK ВОСТОКОВЕДЕНИЕ ORIENTAL STUDIES

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ ТАШКЕНТСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА ВОСТОКОВЕДЕНИЯ

SCIENTIFIC JOURNAL OF THE TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ORIENTAL STUDIES

№ 4, 2024



Jurnal O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahar matbuot va axborot boshqarmasi ro'yxatidan qayta o'tgan (№ 02-0053, 26.09.2014-y – ISSN 2181 – 8096)

Bosh muharrir – Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna
filologiya fanlari nomzodi, professor

Tahrir hay'ati

D. Sayfullayev	<i>tarix fanlar doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)</i>
D. Muxiddinova	<i>filologiya fanlari doktori (mas'ul kotib)</i>
A. Mannonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
R. Xodjayeva	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Sh. Shomusarov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
Q. Omonov	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
U. Muxibova	<i>filologiya fanlari doktori, professor</i>
X. Xamidov	<i>filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
B. Abduhalimov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Xodjayev	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
M. Is'hoqov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
A. Doniyorov	<i>tarix fanlari doktori, professor</i>
I. Xaydarov	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
X. Fayziyev	<i>tarix fanlari nomzodi, dotsent</i>
N. Karimov	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
D. Xodjimuratova	<i>tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)</i>
Sh. Yovqochev	<i>siyosiy fanlar doktori, professor</i>
N. Abdullayev	<i>siyosiy fanlar doktori, dotsent</i>
A. Vahobov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Abdullayev	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
I. Mavlanov	<i>iqtisod fanlari doktori, professor</i>
R. Bahodirov	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
E. Izzetova	<i>falsafa fanlari doktori, professor</i>
G. Glizon	<i>AQSHning New Mexico universiteti professori</i>
A. Shonazarova	<i>AQSHning Kolumbiya universiteti professori</i>
Ono Masaki	<i>Yaponiyaning Tsukuba universiteti professori</i>
Li Dji In	<i>Koreya Respublikasining Xankuk chet tillar universiteti professori</i>
V. Mesamed	<i>Isroilning Quddus universiteti professori</i>
A. Gurer	<i>Turkiyaning Anqara universiteti professori</i>
A. Vorobyov	<i>Rossiya Fanlar akademiyasi, Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi</i>
G. Avda	<i>Misr Arab Respublikasining Helvon universiteti professori</i>
A. Tohir	<i>Misr Arab Respublikasining "Al-Hivar" siyosiy tadqiqotlar markazi direktori</i>
H. Baydemir	<i>Turkiyaning Otaturk universiteti professori</i>

Nashrga tayyorlovchilar:

J. Ismoilov, A. Ziyodov, Sh. Askarova, L. Xamdanzoda, G. Hushnazarova

Jurnal doktorlik dissertatsiyalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi
lozim bo'lgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga O'zbekiston Respublikasi
Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan kiritilgan.

e-mail: nashriyot@tsuos.uz

web-site: www.tsuos.uz



MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

ADABIYOTSHUNOSLIK// ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE

<i>Azizxonova S.</i> Azimiy hikmatlarining badiiy va ma'rifiy xususiyatlari	5
<i>Абдуганиева Н.</i> Сказки индонезии и их формульность	13
<i>Qalandarov M., Xushnazarova G.</i> Kamoliddin Husayn voiz Koshifiyning “Lub ul-bob-masnaviy” va Odina Eshon “miftoh ul-asror” asarlari tahlili.....	24
<i>Karimov N.</i> Li Munyol ijodida qaqnus qushi obrazi	33

TILSHUNOSLIK VA TARJIMASHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // LINGUISTICS AND STUDY OF TRANSLATION

<i>Begmatova B., Qurbonov S.</i> Islom huquqiga oid terminlarning tasnifi	45
<i>Mirziyatov Sh.</i> “Muqaddamatu-l-adab” asari jahon Zamaxshariyshunoslari nigohida.....	56
<i>Abduvaliyeva Oʻ.</i> Afgʻoniston va Pokiston tilshunoslarining qoʻshma soʻzlar va kopulyativ qoʻshma soʻzlarga oid tadqiqotlari tahlili.....	64
<i>Axmedova C.</i> Семантическая классификация слова «любовь» в арабском языке	72
<i>Rasulova K.</i> Oybekning “Navoiy” romanidagi portret tavsiflarining tarjimalarda berilishi	82
<i>Jumaniyazov M.</i> Ziyoviddin Makkiy Xorazmiyning “Kifayatu-n-nahv fi ilmi-l-e-rāb” asarida keltirilgan sheʼriy baytlar va maqollar	93
<i>Saidov U.</i> Badiiy matnning kognitiv tahlili va badiiy konseptni tushunishdagi yondashuvlar ..	108
<i>Saydumarova M.</i> “Oʻtkan kunlar” romanidagi nutqiy etiket birliklarining arab va ingliz tillariga tarjima qilish xususiyatlari haqida	121
<i>Abdullayeva N.</i> Dunyo tilshunosligida oʻzlashgan soʻzlar masalasi. Ularni oʻzlashtirish qoida va tamoyillari	134

MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY

<i>Faromarzi F.</i> Hofiz i Abru “Zubdat at-tavorix” asarining Sulaymoniya kutubxonasida saqlanadigan qoʻlyozmasi haqida.....	144
<i>Dr. Korayem S.</i> Literary heritage of Ali-shir Navaʼi: (A study on his influence and contribution to world civilization)	157
<i>Jumayev Gʻ.</i> Temuriylar davri manbalaridan “Osor al-vuzaro” asarining oʻrganilishi	171



11. العلامة ابن يعيش شرح المفصل في صناعة الإعراب تحقيق الدكتور إميل بديع يعقوب، دار الكتب العلمية بيروت، 2001م، الجزء الثاني، صفحة 462.
12. العلامة جار الله أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري، تحقيق الشيخ عادل أحمد عبد الموجود، الكشف عن حقائق غوامض التنزيل و عيون الأقاويل في وجوه التأويل، الجزء الثالث، مكتبة العبيكان، الرياض، 1998م، صفحة 626.
13. صدر الأفاضل القاسم بن حسين خوارزمي، تحقيق الدكتور عبد الرحمان بن سليمان العثيمين، شرح المفصل في صناعة الإعراب بالتخمين، الجزء الثالث، دار الغرب الإسلامي، بيروت بلبنان، 1990م، صفحة 358.
14. علي بن محمد بن علي الحسيني الجرجاني يعرف بالسيد الشريف أو السيد السند شرح أبيات المفصل. المملكة العربية السعودية، صفحة 346.
15. خالد بن عبد الله بن أبي بكر بن محمد الجرجاوي الأزهرى تحقيق محمد باسل عيون السود شرح التصريح على التوضيح في النحو، دار الكتب العلمية، لبنان بيروت، صفحة 744. 2000م.
16. الإمام جلال الدين السيوطي تحقيق الدكتور عبد العال سالم مكرم، همع الهوامع شرح جمع الجوامع الجزء الثاني، مؤسسة الرسالة بيروت، 1992م، صفحة 289.
17. عبد الرحمان بن محمد بن سعيد الأنباري. الإنصاف في المسائل الخلاف بين النحويين: البصريين و الكوفيين. -القاهرة ، مطبعة السعادة. 1961. الجزء الأول. صفحة 880
18. أبي القاسم محمود بن عمر الزمخشري. تحقيق فخر صالح قدارة. المفصل في علم العربية دارعمار -الأردن. 2003. صفحة 565

UMIDBEK SAIDOV

Tayanch doktorant, TDSHU

Badiiy matnning kognitiv tahlili va badiiy konseptni tushunishdagi yondashuvlar

Annotatsiya. Hozirgi kunda kognitiv tadqiqotlar gumanitar fanlarning barcha sohalariga kirib kelmoqda. Sensorik signallardagi ma'lumotlarning transformatsiyasi (qayta shakllanishi) natijasida inson tafakkurida kechadigan turli: psixik, mantiqiy, evristik, perseptiv jarayonlar olimlarning diqqat markazida. Shunga ham qaramasdan tarjimashunoslik sohasida asliyat matnidagi lingvosemantik va metasemiotik qatlamlari tarjimada aks etishi bilan bog'liq tadqiqotlarda sustkashlik bor. Kognitiv tahlil asli tilshunoslik mahsuli bo'lgani sabab, bu metodni tarjimashunoslikdagi masalalarni hal qilish uchun badiiy matnga nisbatan qo'llash yangicha yondashuv hisoblanadi.

Har qanday badiiy matn kommunikativ maqsadni ko'zlashi sir emas. Bunday maqsad asliyat matnida ham, tarjima matnida ham mavjud. Asliyat matnidagi kommunikativ maqsad tarjima matnida saqlab qolinganmi yoki yo'q degan masala, ayni tarjimashunoslik doirasidagi masalalardan biri. Bunday masalaga javob topish uchun asliyat matnini chuqur tahlil qilish kerak bo'ladi. Buning uchun esa, badiiy matnning kognitiv tahlili va badiiy konsept nima ekanligi bilish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Asosiysi esa, badiiy konsept lingvomadaniy konseptdan qanday farqlanishining tamoyillarini bilish kerak degani.

Ushbu maqolada XXI asrdan boshlab filologik yo'nalishlarda, xususan tilshunoslik sohasida aktual bo'lib kelayotgan badiiy matnning kognitiv tahlil metodi va badiiy matndagi



muallif konsepti, ya'ni badiiy konsept tushunchalari tahlil qilingan. Shu masala bilan bog'liq Askoldov (1928), Olshanskiy (1974), Lotman (1998), Miller (2000), Kazakova (2002), Tarasova (2010), Mileyko (2016), Safarov (2019), Danilenko (2022), G'aniyeva (2023), Xalimova (2023), Karimova (2023) kabi tadqiqotchilarning fikrlari o'rganilib, tizimlashtirishirildi va natijalar xulosa qismida tartib bilan umumlashtirildi. Va yana kognitsiya, kognitiv tahlil, badiiy matn, olamning badiiy manzarasi, matnning semantik strukturasi kabi muhim bo'lgan kalit tushunchalar tahlilga berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy matn, kognitiv tahlil, kognitsiya, olamning badiiy manzarasi, badiiy konsept, lingvomadaniy konsept, matnning semantik strukturasi.

Аннотация. В настоящее время когнитивные исследования стали частью всех гуманитарных направлений. Одним из центральных вопросов, интересующие учёных являются процессы, протекающие в сознании человека в результате трансформации сенсорно-сигнальных информации; психических, логических, эвристических, перцептивных и т.д. Не смотря активный рост интереса к таким исследованиям, в переводоведении эти вопросы всё ещё привлекают к себе мало внимания. Так как, когнитивный анализ исконно развился в лингвистике, то применение такого метода анализа для решения переводоведческих задач изобретение новое.

То, что каждый текст преследует коммуникативную цель не является секретом. Подобная цель присуща и в тексте оригинала, и в тексте перевода. Вопрос сохранности коммуникативной цели оригинала в тексте перевода один из вопросов, изучаемых в рамках переводоведения. Чтобы понять, сохранён ли коммуникативная цель оригинала в переводе, сначала требует когнитивного анализа текст оригинала. Чтобы провести такой анализ, необходимо понимать, что такое когнитивный анализ художественного текста и художественный концепт. И не мало важно понимать принципы различия лингвокультурного и художественного концепта.

В данной статье проанализированы такие понятия как когнитивный анализ художественного текста и индивидуальные концепты в художественном тексте, именуемые художественным концептом, которые стали актуальными для филологических исследований, в частности в лингвистике с начала XXI века. Также по данному вопросу были изучены, структурированы и были обобщены в заключении мнение таких исследователей как Аскольдов (1928), Ольшанский (1974), Лотман (1998), Миллер (2000), Казакова (2002), Тарасова (2010), Милейко (2016), Сафаров (2019), Даниленко (2022), Ганиева (2023), Халимова (2023), Каримова (2023). Также проанализированы такие ключевые понятия как когниция, когнитивный анализ, художественный текст, художественная картина мира.

Ключевые понятия. Художественный текст, когнитивный анализ, когниция, художественная картина мира, художественный концепт, лингвокультурный концепт, сематическая структура текста.

Abstract. In recent years, cognitive research has become an integral part of all fields of the humanities. One of the key questions engaging scholars concerns the processes occurring in human consciousness as a result of transforming sensory-signal information—whether mental, logical, heuristic or perceptual, among others. Despite the growing interest in such studies, these questions have attracted limited attention in translation studies. Since cognitive analysis



initially developed within linguistics, applying this method to address translation-related issues is a relatively new approach.

It is widely recognized that every text pursues a communicative goal, which applies both to the original text and its translation. The question of whether the communicative goal of the original is preserved in translation is one of the core issues studied within translation studies. To determine whether the communicative goal of the original has been retained in translation, the original text must first undergo cognitive analysis. Conducting such an analysis requires a clear understanding of cognitive analysis in literary texts and the concept of artistic conceptualization. It is equally important to grasp the distinction between linguistic-cultural and artistic concepts.

This article explores the notions of cognitive analysis in literary texts and individual concepts within them, referred to as artistic concepts, which have gained significance in philological research, particularly in linguistics, since the early 21st century. The study also examines, structures, and summarizes the views of researchers such as Askoldov (1928), Olshansky (1974), Lotman (1998), Miller (2000), Kazakova (2002), Tarasova (2010), Mileiko (2016), Safarov (2019), Danilenko (2022), Ganieva (2023), Khalimova (2023), and Karimova (2023). Key concepts such as cognition, cognitive analysis, literary text, and artistic worldview are also analyzed.

Key notions: Literary text, cognitive analysis, cognition, literary picture of the world, literary concept, linguacultural concept, semantic structure of the text.

Kirish. Badiiy matnning tahlil metodlari keng tushuncha bo‘lib, stilistik, pragmatik, funksional, lingvopoetik, kognitiv kabi tahlillarni o‘z ichiga oladi. Har bir tahlil metodining o‘z masalalari, maqsadlari va vazifalari mavjud. Biz ko‘rib chiqadiganimiz kognitiv tahlil metodi bo‘lib, u matndagi lingvosemantik va metasemiotik qatlamiga kirib borish va muallifning tafakkuriga nazar solish imkonini beradi. Bunday nazar esa, aslyat matnidagi mazmun tarjimada qanday aks etganini ko‘rish va tahlil qilish uchun asos bo‘ladi. Shahriyor Safarov “Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari” nomli monografiyasida kognitiv yondashuv haqida shunday yozadi: “Kognitiv yondashuv hozirgi paytda tushunish, o‘ylash, xotirlash, muammo yechimini izlash va tildan foydalanish kabi mental jarayonlar tadqiqi bilan qiziquvchi barcha fanlarda keng miqyosda joriy qilinmoqda. Tarjimashunoslik ham bundan chetda qolishni istamasligi shubhasiz”¹.

Filologik masalalar chorrahasida yuzaga kelgan tarjimashunoslik nazariyasi, ham adabiyotshunoslik, ham tilshunoslik masalalarini o‘z ichiga oladi. Va tabiiyki, kognitiv masalalar bu sohani chetlab o‘ta olmaydi, ayniqsa, masala badiiy matn tahlili bilan bog‘liq bo‘lsa. Badiiy matn, birinchi navbatda, kognitiv jarayonning mahsuli bo‘lib, unda ijodkorning olam talqini ifodalangan bo‘ladi. Shuning uchun ham, tarjimon badiiy tarjimaga qo‘l urishdan avval muallifning biografiyasi, motivatsiyasi, madaniy muhiti va asarning mazmuni bilan tanshib chiqishi tarjima sohasida keng tarqalgan amaliyot.

¹ Safarov Sh. Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari. Monografiya. – T.: “Navro‘z” nashriyoti, 2019, 300 b.



Bu haqida Raima Shirinova atroflicha fikr bildirgan: “Tarjimon tarjimaga kirishishdan avval o‘zi tarjima qilmoqchi bo‘lgan asar yozuvchisining ijod yo‘nalishi, adabiy merosi bilan yaqindan tanishishi, uning adabiy uslubi, ruhiyati, maqsadi va barcha ichki hamda tashqi kechinmalarini his qila olishi lozim. Mabodo, yozuvchi bilan tarjimonning uslubi, adabiy, estetik didi va o‘y-xayollari bir-biriga mos kelmasa, unda tarjimon bu ishga qo‘l urmagan ma’qul. Chunki tarjimon tarjima jarayonida adibning g‘oyaviy badiiy maqsadini yoki individual uslubini tushunmasligi oqibatida ham u tarjima qilgan asarda kognitiv unsurlar paydo bo‘lib qolishi mumkin”¹.

Demak, zamonaviy tarjimashunoslikning oldida turgan masalalardan biri bu badiiy tarjimalardagi matnning kognitiv tahlil nazariyasi va metodologiyasiga e’tibor qaratishdir. Bunda esa, markaziy masalalardan biri asliyatdagi badiiy matnning kognitiv tahlili desak, adashmaymiz. Bunday tahlil metodi quyidagi **maqsadlarni** ko‘zlaydi:

1. Ijodrok matnda aks etirilgan badiiy olam manzarasini tushunish,
2. Badiiy olamning qurilishida asos bo‘lgan individual tizimli-mazmun birliklarini aniqlash.
3. Matnning sintagmatik darajasidagi lingvosemantik va metasemiotik qatlamlarni o‘rganish.

Qo‘yilgan maqsadga yetish uchun quyidagi bajarilishi kerak bo‘lgan **vazifalar**:

1. Badiiy matnning kognitiv tahlil metodi nima ekanligini tushunish.
2. Badiiy konsept tushunchasiga izoh berish.
3. Lingvomadaniy va badiiy konseptlar o‘rtasidagi tafovutni aniqlash.

Ushbu maqolani yozishda **qiyosiy tahlil** va **deskriptiv tahlil usullaridan** foydalanilgan. Qiyosiy tahlil mavjud manbalardagi ma’lumotlarni qiyoslash va umumiy xulosaga kelishga qaratilgan. Deskriptiv tahlil esa mavjud manbalardagi ma’lumotlarni tushunish va ulardagi mazmunni yuzaga chiqarishga qaratilgan. Bunday tahlil usullari badiiy matnning kognitiv tahlilli va badiiy konsept bilan bog‘liq tadqiqotlarda mavjud bilimlarni o‘rganish, tizimlash va umumlashtirish imkonini beradi.

Belgilangan vazifalarga muvofiq avval badiiy matnning kognitiv tahlili nima ekanligini tushunishdan boshlaymiz. Uning uchun to‘rt bosqichli tahlilni amalga oshiramiz:

1. Kognitsiya nima ekanligini bilish.
2. Kognitsiya terminining izohi asosida kognitiv tahlil nima ekanligini belgilash.
3. Kognitiv tahlil tushunchasi badiiy matnga nisbatan qanday qo‘llanish tamoyilini asoslab berish.

Birinchi qadamni esa, kognitsiya terminini izohlashdan boshlaymiz. Buning uchun Kubryakovaning “Краткий словарь когнитивных терминов” nomli lug‘atini asos qilib olamiz. Manbaga ko‘ra, kognitsiya termini tashqi va ichki olamdan axborot

¹ Shirinova R. [Xorijiy filologiya, №1] Tarjimada kognitiv dissonans. – Samarqand, 2019, 24–38-b.



signallari sifatida “kirib keluvchi” sensorik (sezgi, hissiyot, tuyg‘u) ma’lumotlarni qayta shakillantiruvchi miyadagi barcha jarayonlarga nisbatan qo‘llaniladi. Kirib keluvchi barcha sensorik ma’lumotlar qayta ishlash uchun markaziy nerv sistemasiga, ya’ni miyaga kelib, obraz, propozitsiya, freym, skript, ssenariy kabi turli turdagi mental (ham psixik, ham aqliy) namoyon bo‘luvchi birliklarga o‘zgaradi va ehtiyoj paydo bo‘lganda ulardan foydalanish uchun xotirada ushlab turiladi. Kognitiv yoki kognitsiya jarayonlari sifatida nafaqat tafakkur va nutqni, balki olam bilan aloqaga kirgandagi perseptual (olam haqidagi barcha ma’lumotlarni aks ettiruvchi) jarayonlarni, sensorik tajribani ham ko‘rish mumkin¹. Ya’ni, kognitsiya – ichki yoki tashqi dunyodan kelgan har qanday ma’lumotni qayta ishlash, sistemalashtirish, sturkturalashtirish, mazmun berish kabi inson tafakkuridagi bir qancha murakkab jarayonlarni ifodalagan termin deb hisoblash mumkin.

Yuqorida keltirilgan ma’lumot asosida kognitiv tahlilni kognitiv jarayonlar natijasida yuzaga kelgan dunyoni anglashdagi tajribani tushunishga qaratilgan analitik metod deb xulosa qilsa bo‘ladi. Bu esa, kognitiv tahlil metodini badiiy matnga nisbatan qo‘llash, undagi ijodkor matnda aks ettirgan kognitiv jarayonlar natijasida yuzaga kelgan tajribani bilish imkonini beradi degani. Bu haqida batafsil quyida ko‘rib chiqsak.

Lotman, har qanday badiiy matn–bu shunchaki ikki chegara² orasidagi belgilar ketma-ketligi emas. Badiiy matnga ichki yaxlitlik xos. Bunday yaxlitlik sintagmatik darajada semantik maydonni hosil qiluvchi struktur birlikni shakillantiradi, deb fikrlaydi³. Ya’ni, matn badiiy deb atalishi uchun, u sintegmatik darajada yaxlit semantik maydonni hosil qiluvchi ichki struktur birlikka ega bo‘lishi kerak. Badiiy matnning kognitiv tahlil metodi aynan shunday ichki yaxlitlikni tashkil etgan semantik maydonni, matn strukturasini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Natijada asardagi muallifning individual badiiy olamiga nazar solish imkoni paydo bo‘ladi. Bunday tahlil metodi matnning nafaqat mazmunini, balki, mazmun ortida yotgan mental modellarni; bosh qahramonlar dunyoni qanday tushunishi, qanday konseptlar aks etgani, o‘quvchi matnni qanday qabul qilib qanday talqin qilishi mumkinligini tushunish imkonini beradi. Badiiy matnning kognitiv tahlil metodining asosiy jihatlaridan biri–bu matnda mavjud konseptlarni yoki konseptual metaforalarni o‘rganishdir. Bu esa, badiiy matnning chuqur qatlamini ochishga yordam beribgina qolmay, uni tarjima matnida kommunikativ maqsadga muvofiqlik doirasida tahlil qilish uchun asos bo‘ladi. Ushbu tahlil til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlab, matn orqali berilayotgan konseptlarning tarjimada qanchalik samarali aks etganini baholash imkonini beradi.

¹ Кубрякова Й.С. Краткий словарь когнитивных терминов. [Московский государственный университет]. Москва, 1997, 197 стр.

² Ikki chegara – matnning boshlanishi va yakuni nazarda tutilgan.

³ Лотман Й.М. Структура художественного текста. [Искусство – СПб]. Санкт – Петербург, 1998, 285 стр.



Demak, badiiy matnlarning kognitiv tahlil birliklaridan biri—bu badiiy matn aks etgan konseptlar, aniqrog'i badiiy konseptlardir.

Konseptlar yoki meta tushunchalar insonning kognitiv qobiliyati uchun ham hissiy, ham aqliy resurs birligi sifatida xizmat qilib, bunday resurs birliklari insonning dunyo haqidagi tajribasini tizimlashtirishga yordam beribgina qolmay, tafakkurning tizimli-mazmun resurs birligi sifatida idrok obyekti haqidagi barcha bilim, tajriba va fikrlarni o'zida jamlagan bo'lishi haqida avval ham yozgan edik. Konseptlarning bunday xususiyati tilda namoyon bo'lishi, ushbu tilda so'zlashuvchilarning dunyo haqidagi tasavvurini tushunish imkonini beradi. Bunday hodisa o'zbek tilshunosligida "olamning lisoniy manzarasi" termini bilan ifodalanadi. Konseptlarga berilgan bunday ta'rif ma'lum bir til madaniyatida mavjud "umumiy meta tushunchalar"ni, yoki Askoldov (1928) so'zi bilan aytganda, "idrok konseptlari"ni ifodalash uchun mos keladi. Lekin, bunday umumiylikka qarshi keladigan yana bir hodisa borki, u til madaniyatida mavjud umumiy meta tushunchalarni ifodalash uchun emas, individual (shaxs) tafakkurini ifodalash uchun tizimli-mazmun resurs birliklari sifatida xizmat qiladi. Bunday hodisa zamonaviy filologiyada "badiiy konsept" termini bilan ifodalanadi.

Badiiy konsept haqida birinchilardan bo'lib yozgan filolog, shubhasiz, Askoldov bo'ladi. "So'z va konsept" nomli maqolasida konseptlar haqida fikr yurita turib ularni ikki qarama-qarshi guruhga ajratadi: "концепты познания" (idrok konseptlari) va "концепты художественные" (badiiy konseptlar). Idrok konseptlariga hissiyotlar, istaklar, umuman, irratsionallik (aniq bir qonuniyat doirasida aql bilan izohlab bo'lmalik) xos emas. Badiiy konseptlar esa, o'z ichiga ham ratsionallik va irratsionallikni, ya'ni tushunchalar, tasavvurlar, hissiyotlar, tuyg'ular, ba'zida, hattoki irodani qamrab olgan bo'lishi mumkin deb yozadi. Shu sababdan ham, badiiy konseptlar idrok konseptlaridan psixologik murakkabligi bilan ham farqlanib turishini aytadi. Askoldovning fikricha, psixologik kategoriyalarni badiiy konseptlar uchun yod deb hisoblash xato, aksincha, badiiy sezgining rivojlanishi ruhiy rivojlanish bilan birga ketishini ta'kidlaydi. Badiiy va idrok konseptlarining o'rtasidagi sezilarni farqlardan biri—bu badiiy konseptlar imkoniyatlar jihatdan cheksiz bo'lishini aytadi. U buni quyidagicha izohlaydi: "Badiiy konseptlardan farqli idrok konseptlari voqelik qonuniyatlarida mavjud talablarga yoki mantiqiy qonuniyatlarga bo'ysungan bo'ladi, badiiy konseptdagi elementlar o'rtasidagi bog'liqlik esa, idrok konseptlariga umuman yod bo'lgan mantiqqa va badiiy assotsiatsiyalardagi real pragmatikaga bo'ysungan bo'ladi. Tog'ri badiiy konseptlar butunlay mantiq yoki voqelik qonuniyatlarini rad etadi deb bo'lmaydi, shunday bo'lsa-da, ularni hech qanday umumiy qoidalar bilan izohlab bo'lmaydi va aynan shu jihat ulardagi individuallikni belgilab beradi"¹.

Askoldov aytmogchi bo'lgan fikrni umumiyashtiradigan bo'lsak, badiiy konseptlarni tushunish uchun biz ijodkor, shaxs tafakkuri bilan ishlashimiz kerak. Sababi, idrok konseptlaridagi elementlar o'rtasidagi bog'liqlik til madaniyatida mavjud

¹ Асколдов С.А. Концепт и слово // "Русская речь" to'plami, 2-nashr, 1928, 28–44 str.



ratsionallikka bo'ysungan bo'lsa, badiiy konseptlardagi elementlar o'rtasidagi bog'liqlik murakkab psixologik va idrok jarayonlaridagi ham ratsionallik va irratsionallikka bo'ysungan bo'ladi. Aynan shu jihat ulardagi individuallikni belgilab beradi.

Olshanskiy Igor Grigoyevich badiiy matnlarda konseptning o'rni haqida shunday yozadi: "Har qanday badiiy matn ma'lumotni o'ziga xos uslubda berishi bilan ajralib turadi. Matn tabiatiga ko'ra biosemiotik "ikki karra kodlangan" bo'ladi: agar til holatni tasvirlab berish uchun, ya'ni xabarni kodlash uchun ishlatilsa, metatil esa o'sha kodlangan xabarni talqin qilish uchun ishlatiladi. Konsept esa badiiy matnni lingvokulturologik ta'riflash uchun "dekodlash" (kodni yechish) kaliti bo'lib xizmat qiladi"¹.

Olshanskiy aytgan fikrga qo'shilmaslikning iloji yo'q. Aslida ham, badiiy konseptlar matndagi metamazmunni, ya'ni birlamchi matndagi begilarda emas, ularning semantik qatlamida yotgan metasemiotik qatlanmi tushunishga yordam beradi. Badiiy matndagi metasemiotik qatlanmi tushunish esa, matn yaralish jayonidagi muallifning motivini, tafakkurida kechgan jarayonlarni ochib beradi.

Badiiy konseptlarni filologik nuqtayi nazardan o'rgangan yana bir tadqiqotchi Lyudmila Vladimirovna Miller bo'ladi. Askoldov kabi konseptlarni ikki guruhga ajratadi: lingvomadaniy konseptlar va badiiy konseptlar. Faqat, Askoldov idrok konseptlari deb e'tirof etgan hodisani Miller lingvomadaniy konseptlar deb nomlaydi. Bizningcha ham, tildagi konseptlarni aynan Miller taklif qilgan termin atash ushbu hodisani tabiatini aniqroq ifodalaydi. Miller uchun badiiy konseptlar – ijodkorning o'ziga xos universal badiiy tajribasidir. Bunday tajriba madaniy xotirada muhrlangan bo'lib, yangi badiiy mazmunni yaratish uchun resurs sifatida xizmat qiladi. deb hisoblaydi. Miller "Художественная картина мира (ХКМ)" (Olamning badiiy manzarasi) degan tushunchani kiritadi. Millerning fikricha, OBM – tabiati jihatdan ideal (xayoliy mukammal) jism. Badiiy muloqot uchun estetik asos bo'lib xizmat qiladi. O'ziga xos intensional (tushunchaning mazmunini ifodalagan) tizimdan iborat bo'lib, ham individual, ham jamoaviy ongsiz tafakkurda aks etgan bo'ladi. Bunday tizim matnda qat'iy bir shakldagi belgilar sifatida namoyon bo'lmaydi, ammo ular ma'lum bir etnomadaniy jamiyatning tafakkurida estetik-intension (estetik tushunchalarning mazmunini ifodalagan) "fayl" sifatida mavjud bo'ladi. Va mana shu "fayl" ichida estetik mazmunni ifodalagan barcha tushunchalar passiv holatda mavjud bo'lib, badiiy asarlar bilan tanishish jarayonida yuzaga chiqadi. Bunday xayoliy mukammal tushunchalar yig'indisi o'z negizida badiiy konseptlar degan hodisani tashkil etadi. Bunday turdagi konseptlar betakror bo'lgan emotsional-intellektual (ham hissiy, ham aqliy) maydonni shakllantiradi. O'quvchi badiiy asar bilan tanishish jarayonida assotsativ va kanotativ mexanizmlarning ishga tushishi sabab, ana shu maydondagi ma'lumotlarni talqin qilish va asardagi yashirin mazmunni ochish hamda estetik obyektini ajratib olish imkoni bo'ladi. Har bir badiiy konseptlardagi mazmun madaniy

¹ Олшанский Г. И. Текст как единство элементов и отношений // Лингвистика текста: материалы научной конференции. – М., 1974. Ч. 1. С. 12–14.



konseptlardagi ma'lumotlarga mos bo'lib, retsepiyent (qabul qiluvchi) ma'lumotlarni qanday qabul qilishini va qanday estetik reaksiya bildirishini belgilab beradi. Shu sababdan ham OBM milliy mental o'ziga xoslikni aks ettirgan bo'ladi, deyish mumkin¹.

Badiiy tarjimalar va ularning xususilayatlari haqida yozgan yana bir filolog Kazakova Tamara Anatolyevna bo'ladi. Kazakova badiiy matnda uchraydigan konseptlar haqida shunday deydi: "Badiiy matn real yoki xayoliy dunyo haqida qandaydir xabar beradi. Agar bu xabarni mantiqiy tahlil terminlarida baholaydigan bo'lsak, badiiy matnda ma'no hosil qiluvchi komponentlarning o'ziga xos turdagi tushunchalari, ya'ni obrazli konseptlar bo'lib chiqadi". Kazakova konsept termini ostida real yoki xayoliy dunyodagi obyektning muhim yoki xususiy belgilari haqidagi tasavvur yoki idrok sistemasini nazarda tutishini yozadi. Uning yozishicha badiiy matndagi mantiq shundayki, undagi konsept mantiqiy xulosalar yig'indisida ko'rinishda ochiq holatda bo'lmaydi, aksincha, yaxlit bir badiiy obraz shaklida yopiq shaklda ifodalangan bo'ladi. Aynan mana shunday yaxlit bir obrazga bog'lanib, matnda yopiq (oshkor bo'lmagan) holatda mavjud ma'no hosil qiluvchi tushunchalar obrazli konsept deyiladi. Odatda, obrazli konsept badiiy matnda yaxlit bir shaklda qabul qilinadi, ammo badiiy tarjimada esa bunday obraz, hech bo'lmaganda, ikki bosqichli: konseptual tahlilga va emotiv bahoga beriladi deb yozadi. Konseptual tahlilni u shunday tariflaydi: "Konseptual tahlilning asosiy jihati badiiy obrazni aniqlashdagi birlamchi obrazli konseptning eng muhim subyektiv-predikat xususiyatlarini va ularni ifodalash uslublarini aniqlab olishdan iborat bo'ladi"².

Tarasova Irina Anatolyevna badiiy konseptlarni ikki xil talqin qilish mumkin deb hisoblaydi. Birinchisi, muallifning individual ruhiy dunyosini aks ettirgan birlik sifatida. Ikkinchisi, milliy badiiy an'ananing, aniqrog'i milliy badiiy olam manzarasining bir elementi sifatida. Birinchi yondashuv ko'proq lingvostilistik, kognitiv poetik va kommunikativ stilistika rumumiga xos qarash deb fikrlaydi. Misol tariqasida O.V. Bepalova o'z dissertatsiyasida badiiy konseptga nisbatan bergan izohini keltiradi: "Badiiy konsept—bu shoir yoki yozuvchining tafakkur birligi bo'lib, badiiy asarda yoki badiiy asarlar to'plamida namoyon bo'lgan bo'ladi". Ikkinchi yondashuv esa, badiiy konseptning shu tilda shakllangan badiiy madaniyatning xususiy realizatsiyasi sifatida ko'rinishini yozadi va misol tariqasida yuqorida ko'rib chiqilgan Millerning fikrini keltiradi³.

Yana ikki tadqiqotchi Mileyko Yelena Vladimirovna va Rus-Bryushinina Ines Valentina hamkorlikda yozgan maqolalarida badiiy konseptlarni muallifning individual olam manzarasi deb izohlashadi. Ularning fikricha, badiiy konseptlar badiiy matn,

¹ Миллер Л. В. [Мир русского слова] Художественный концепт как смысловая и эстетическая категория. – Санкт-Петербург, 2000., № 4., с. 39–45.

² Казакова Т.А. Художественный перевод: о'quv qo'llanma. – Санкт-Петербург, 2002, 109стр.

³ Тарасова И.А. [Вестник Нижегородского университета] Художественный концепт: диалог лингвистики и литературоведения: Саратовский государственный педагогический университет, Саратов, 2010. № 4 (2), с. 742–745.



olamning badiiy manzarasi degan tushunchalar bilan chanbarchas bog'liq. Shu sababdan ham, badiiy konseptlar lingvomadaniy, lingvomamlakatshunoslik, madaniy, psixologik va bosh shu turdagi kognitiv yo'nalishlar bilan kompleks o'rganilishi kerak. Har qanday badiiy konsept muallifning individual tafakkurini aks ettiribgina qolmay, butun etnomadaniy jamoaning tafakkurini ham aks ettirgan bo'ladi. Badiiy konseptlarning aynan shu jihati ulardagi ham individuallikni, ham milliylikni o'rganish imkonini beradi, deb hisoblashadi. Badiiy konseptlar idioshtilining¹ markaziy kategoriyasi bo'lib, badiiy matnda aks etgan lisoniy tizimidagi muallifning dunyoqarashini ifodalagan bo'ladi, deb yozishadi. Shu sababdan ham, har qanday badiiy asar yaratilgan sotsiumning bir qismi bo'lsa-da, lekin baribir muallifning tafakkurida shakllangan individual olam manzarasini ifodalagan bo'ladi, deb xulosa qilishadi².

Mohinurxon Ilyasxonova Xurramovna o'z maqolasida badiiy konseptlar haqida bir necha muhim fikrlarni bildirib o'tgan. Masalan, badiiy asarlarda uchraydigan tushunchalarning tabiati haqida shunday deydi: "Badiiy adabiyotdagi tushunchalar, bir tomondan, umuminsoniy va lingvomadaniy g'oyalarni aks ettirsa, ikkinchi tomondan, ular o'zlarining konseptual dunyosini, qoida tariqasida, hissiy va obrazli yaratadilar". Bu kabi badiiy konseptlarning tabiatiga nisbatan berilgan ta'rif rus filologlari tomonidan ham aytilgan. Badiiy asar konsepsiyasi ayrim holatlarda muallifning subyektiv qarashlaridan keng qamrovli bo'lishi mumkin deb yozadi. Xurramova badiiy asarda uchraydigan asosiy g'oyani "global konsepsiya" deb nomlaydi. Bunday atama biz yuqorida keltirgan "meta tushuncha" degan ta'rifga mos keladi. Badiiy asarda uchraydigan konseptlarning funksional vazifasi sifatida quyidagicha fikr bildiradi: "Boshqa jihatdan, badiiy asar konsepsiyasi unda tasvirlangan badiiy-estetik, obrazli dunyo orqali hayotni anglash usuli bo'lib ham maydonga chiqadi. Umuman, konsepsiya badiiy asarning san'at, adabiyot va madaniyat tarixidagi o'rnini hamda o'quvchilar ommasiga ta'sir etish darajasini belgilaydi". Xurramovaning fikricha, badiiy matnlarda ifodalangan konseptlarni o'rganish matn muallifi dunyosining individual tasvirini tushunishga yordam beradi. Muallifning individual tasvirini tushunish esa, o'sha madaniyatda rivojlangan go'yalarning jamoaviy tizimini qanday aks ettirishi va unga ta'sir qilishini aniqlashga yordam berishini ta'kidlaydi³.

Badiiy konseptlarga nisbatan o'z fikrini bildirgan yana bir tadqiqotchi G'aniyeva Nigora Olimbekovna ushbu hodisani o'z fikrini quyidagicha tarzda bildiradi: "Badiiy konseptni o'rganish kognitologiyaga doir bo'lgan tadqiqotlar bilan bog'liq. Badiiy

¹ Idioshtil – filologiyada birinchi bo'lib Grigoyev V.P. tomonidan kiritilgan termin bo'lib, yozuvchi yoki shoirning individual mualliflik uslubini nazarda tutadi.

² Mlieyko Y.V., Rus-Bryushina I.V. [Филологические науки. Вопросы теории и практики] Художественный концепт как объект лингвистического исследования. Тамбов, 2016, №11(65), –с. 128-130. <http://www.gramota.net/materials/2/2016/11-3/36.html>

³ Xurramova M.I. [Science and education jurnali, volume 5, issue 11] Badiiy adabiyotlarda konsept tushuncha, Samarqandi:Samarqand davlat chet tillari universiteti, 2023, 413–417-b. <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-adabiyotlarda-konsept-tushunchasi>



konseptning lingvistik ifodasini o'rganish badiiy matnning g'oyaviy ma'nosini o'rganishga va yozuvchining ijodiy uslubini ochib berishga xizmat qiladi. Badiiy konsept umumbashariy madaniy va muallifning individual dunyoqarashini o'z ichiga oladi va shu tarzda butun asarning obrazli tizimida badiiy timsolni yaratadi". G'aniyeva badiiy konseptlarning o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilarni kiritadi: tasvir, obrazlilik, hissiylik, simvolizm, semantik mazmunning o'rgaruvchanligi va ma'noning boyishi. G'aniyeva badiiy konseptlarni o'rganishga doir yondashuvlarni ikki guruhga ajratish mumkinligini qayd qiladi:

1. Badiiy konseptni muallifning individual fikrlash birligi sifatida tahlil qilish.
2. Badiiy konseptni dunyoning badiiy tasviri sifatida tahlil qilish.

Badiiy matn ijodiy jarayon mahsuli bo'lganligi sabab, muayyan konsept birinchi o'rinda o'brazlilik va individuallikka ega bo'lishini yozadi. G'aniyeva ham xuddi Xurramova kabi konseptlarni ikki turga asosiy hamda madaniyga ajratadi va ularga shunday ta'rif beradi:

"Asosiy konseptlarga muayyan tarixiy davrda yoki ma'lum bir ijtimoiy-madaniy makonda shakllangan jamiyatning ma'naviy hayotini aks ettiruvchi umumiy tushunchalar kiradi. Ular axloqiy atamalar, ma'naviy fikrlar sifatida shakllanib, adabiy asarda asosiy badiiy konsept sifatida namoyon bo'ladi.

Madaniy badiiy tushunchalar esa semiologik shakllanishlar bo'lib, dunyoning etnik madaniy qarashlarini shakllantiradi, ular ma'lum bir madaniyatni, aks ettiruvchi tushunchalardir. Madaniy konseptlar xalq ruhini aks ettiruvchi tushunchadir va uning eng dominant qiymati unda xalqning milliy qadriyatlariga bog'liqligidir"¹.

Ushbu aytilgan fikrga albatta e'tiroz bor. Sababi, asosiy konseptlarga berilgan ta'rif bilan madaniy konseptlarga berilgan ta'rifda hech qanday farq yo'q. Ikkisi ham madaniy hodisa sifatida izohlanyapti. Aslida konseptlarni ikki guruhga ajratishda Millerning izohidan kelib chiqqan maqsadga muvofiq bo'ladi. Ya'ni, konseptlar yoki lingvomadaniy, yoki badiiy (ijodga tegishli ma'nosida) bo'ladi. Agar lingvomadaniy konseptlar tarixiy-ijtimoiy jarayonlarda yuzaga kelsa, badiiy konseptlar ijodkorning ham aqliy, ham hissiy jarayonlarining natijasidir. Albatta, har qanday badiiy konseptlarda lingvomadaniy izlarni topish mumkin, lekin bu ulardagi individuallikni yo'qqa chiqarmaydi, aksincha, ulardagi semantik qatlamni ham madaniy, ham individual nuqtayi nazardan ochib berish imkonini beradi.

Badiiy konseptlarga tipologik nuqtayi nazardan baho bergan yana bir tadqiqotchi Xalimova Firuza Rustamovna. Xalimova ham, xuddi G'aniyeva va Xurramova kabi "asosiy" va "madaniy" turga ajraladigan konseptlar haqida yozadi, bunday yondashuv konsept hodisasiga surunkali noto'g'ri baho berish hisobiga yuzaga kelgan, degan xulosaga kelish mumkin deb fikrlaymiz. Xurramova badiiy konseptlarning turlari haqida shunday yozadi: "Badiiy nutqda ifodalanishiga ko'ra badiiy konseptlar quyidagi

¹ G'aniyeva N.O. [Ta'lim fidoyilari elektron jurnal] Konsept va badiiy konsept tushunchasi. 2023, -b.150–155, <https://doi.org/10.5281/zenodo.8384384>



turlarga bo‘linadi: individual, mikroguruhli, milliy, sivilizatsion, umumbashariy”¹. U badiiy konseptlarning tabiatini lingvomadaniy konseptlarga qiyoslash orqali tushunish mumkinligi haqida yozadi. Ya’ni, lingvomadaniy konseptlarda mavjud barcha xususiyatlar badiiy konseptlarda ham bo‘lishi mumkin deb hisoblaydi. Bu jihatdan esa, Xurramova ham, xuddi rus filologlarai kabi, muallif tafakkurida shakllangan konsept madaniyatda mavjud konseptning aks etishi degan fikrni takrorlayapti desak, mubolag‘a bo‘lmaydi deb hisoblaymiz. Ammo, rus filologlarida uchramaydigan bir fikr borki, u lingvomadaniy badiiy konsept tushunchasi. Ya’ni, Xurramova uchun lingvomadaniy konsept va badiiy konsept o‘rtasidagi tafovut mavjud emas, shu sababdan ham bu ikki terminni birlashtirishda hech qanday muammo ko‘rmagan. Vaholanki, muammo yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi. Avval ham aytilganidek, har qanday badiiy asar o‘zi yozilgan til madaniyati ta’sirida bo‘ladi. Lekin bu degani, ijodkor ta’riflagan konsept madaniyatdagi konseptga ekvivalent bo‘la oladi degani emas, sababi, ijodkor tafakkurida shaxsiy tajriba etnik tajribadan ustunroq turadi. Va shuning uchun ham unda betakror o‘ziga xoslik, individuallik sezilib turadi. Badiiy konseptlar esa, aynan shunday o‘ziga xosligi bilan madaniy konseptlardan farqlanib turadi. Badiiy konseptlarni o‘rgana turib, unda tildagi madaniy izlarni uchratishimiz mumkin, ammo ular muallifning individual olam manzarasining oqimida qolib ketadi.

Karimova Safo Sayfullayevna badiiy konseptlarning tabiatini tushunish uchun ularni kognitiv (mantiqiy) oppozitsiyada tahlil qilish bilan beradi. Agar kognitiv konseptlarning asosi obyektivlik bo‘lsa, badiiy konseptlarning asosi subyektivlik bo‘ladi. Agar kognitiv konseptlar umuminsoniy tasavvurlarni ifodalagan bo‘lsa, badiiy konsept individuallik belgilariga asoslangan bo‘ladi, deb hisoblaydi. Karimova badiiy konseptlarga shunday ta’rif beradi: “Badiiy konsept tafakkur birligi, alohida ijodkor yaratgan matnda lisoniy voqealangan hodisa sifatida tushinish lozim. Badiiy konseptning mazkur ko‘rinishidagi talqini kognitiv tilshunoslik va psixolingvistika doirasida taklif etilgan ta’riflar bilan o‘xshashligi yaqqol ko‘rinib turadi”. Til birliklarini, badiiy tasvir vositalarini badiiy matnning shakli sifatida ko‘rilsa, uning ruhini anglash, asardagi konseptlarni to‘g‘ri tushinishni shoirning ichki olamiga kirib borishga qiyoslaydi².

Xulosa. Bizda mavjud manbalar asosida badiiy matnning konseptaul tahlil metodi va badiiy konsept haqida muxtasar qilib aytadigan bo‘lsak, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

¹ Xalimova F.R. [Far DU ilmiy xabarlar ilmiy jurnali] Badiiy konseptlar tipologiyasi: Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, 2023, 490–493-b.
<https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/470>

² Karimova S.S. “Baxt” konseptning badiiy matnda voqealanishi va tarjima muammolari (o‘zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimai misolida) Phd dissertatsiyasining avtoreferati. Buxoro, 2023, 54-b.



1. Badiiy matnning kognitiv tahlil metodi matndagi ichki yaxlitlikni tashkil etgan semantik maydonni, matn strukturasini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi.

2. Badiiy matnning kognitiv tahlil metodi matnning ham lingvosemantik, ham metasemiotik qatlamini ochishga va undagi mental modellarni; bosh qahramonlar dunyoni qanday tushunishi, qanday konseptlar aks etgani, o‘quvchi matnni qanday qabul qilib, qanday talqin qilishi mumkinligini aniqlash imkonini beradi.

3. Badiiy konsept – ijodkor yaratgan asarning sistemligini ta’minlab beruvchi tizimli-mazmum birligi bo‘lib, uning tafakkuridagi olamning individual manzarasini aks ettirgan bo‘ladi. Ijodkorlar yaratgan san’at asarlari misolida buni osongina tushinib olish mumkin. Masalan, istalgan bir badiiy asarni xayol qilib olaylik. Bir qaraganda tartibsizdek tuyilgan jarayonlar, voqealar, bosh qahramonlar obrazi, aslida ijodkor tafakkurida tasavvur etgan yaxlit “surat” bo‘ladi. Fikrimizcha, har qanday badiiy asarni, bir yoki bir necha konseptni ifodalagan, yaxlit struktura sifatida ko‘rish mumkin.

4. Badiiy konseptlar shu tilda mavjud madaniy badiiy qarashlarni ifodalagan yoki ularning natijasida shakllangan bo‘ladi, degan fikrlar ham qayta-qaytda uchradi. Va bu qisman to‘g‘ri deb hisoblasak bo‘ladi. Sababi, badiiy konseptlar, lingvomadaniy konseptlardan farqli ijodkor tafakkuridagina mavjud bo‘lib, o‘zi ijod qilgan til madaniyatidagi umumiy meta tushucha (lar)dagi mazmunga mos kelmasligi, ayrim holatlarda qarshi qo‘yilgan ham bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri, ijodkor ma’lum bir til madaniyati doirasida shakllanadi va uning asarlarida buning izlarini aniqlash mumkin. Lekin bu degani, uning asarlari o‘zi ijod qiladigan til madaniyatidagi umumiy qarashlarni ask ettirishga mahkum degani emas. Til madaniyatidagi umumiy meta tushunchalarni emas, aksincha, individual yondashuv asosida shakllangan ijod konseptlariga nisbatan “badiiy konsept” termini qo‘llaniladi. Badiiy konseptlar – biron-bir shaxsning tafakkuridagi dunyoning individual lisoniy manzarasini nazarda tutgan termin.

5. Badiiy konseptlar ham huddi lingvomadaniy konseptlar kabi barcha falsafiy, estetik, obyektiv xususiyatlarga, Askoldovning so‘zi bilan aytganda, ratsionallikka ega bo‘ladi. Biroq, ularda, irratsionallik ham mavjud bo‘ladi. Badiiy konseptlar obyektivlik voqelik bilan bir qatorda ijodkorning subyektiv voqeligini ham ifodalashi sabab, olamning lingvomadaniy manzarasi va olamning individual manzarasi bir tafakkurda qorishgan bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Askoldov S.A., Концепт и слово // “Русская речь” сборник, 2-е издание, 1928, стр. 28–44.
2. Danilenko I.A. [Вестник Московского государственного областного университета (электронный журнал)] Выявление концептов-доминант в художественном тексте: Belgorod davlat universiteti, Belgorod, 2022. №3



- www.evestnik-mgou.ru Safarov SH. Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari. Monografiya. – T.: “Navro‘z” nashiryoti, 2019, 300 b.
3. Kazakova T.A., Художественный перевод: учебник - Санкт-Петербург, стр. 2002, 109.
 4. Karimova S.S. “Baxt” konseptining badiiy matnda voqealanishi va tarjima muammolari (o‘zbek poeziyasining ingliz tiliga tarjimasi misolida) Phd dissertatsiyasining avtoreferati. Buxoro, 2023, 54b.
 5. Kubryakova Y.S. Краткий словарь когнитивных терминов. [Московский государственный университет]. Moskva, 1997, 197 стр.
 6. Lotman Y.M. Структура художественного текста. [Искусство – СПб]. Санкт-Петербург, 1998, 285 стр.
 7. Miller L. V. [Мир русского слова] Художественный концепт как смысловая и эстетическая категория. – Санкт-Петербург, 2000., № 4., стр. 39–45.
 8. Mlieyko Y.V., Rus-Bryushina I.V. [Филологические науки. Вопросы теории и практики] Художественный концепт как объект лингвистического исследования. Tambov, 2016, №11(65). стр. 128–130.
<http://www.gramota.net/materials/2/2016/11-3/36.html>
 9. Olshanskiy G. I., Текст как единство элементов и отношений // Лингвистика текста: материалы научной конференции. М., 1974. Ч. 1. –С. 12–14.
 10. Shirinova R. [Xorijiy filologiya, №1] Tarjimada kognitiv dissonans. – Samarqand, 2019, 24–38-b.
 11. Tarasova I.A. [Вестник Нижегородского университета] Художественный концепт: диалог лингвистики и литературоведения: Саратовский государственный педагогический университет, Саратов, 2010. № 4 (2). 742–745. Стр.
 12. Xurramova M.I. [Science and education jurnali, volume 5, issue 11] Badiiy adabiyotlarda konsept tushunchasi, Samarqandi: Samarqand davlat chet tillari universiteti, 2023, 413–417-b. Yuklab olingan web-manzil:
<https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-adabiyotlarda-konsept-tushunchasi>
 13. Xalimova F.R. [FarDU ilmiy xabarlar ilmiy jurnali] Badiiy konseptlar tipologiyasi: Farg‘ona davlat universiteti, Farg‘ona, 2023, 490–493-b
<https://journal.fdu.uz/index.php/sjfsu/article/view/470>
 14. G‘aniyeva N.O. [Ta’lim fidoyilari (elektron jurnal)] Konsept va badiiy konsept tushunchasi. 2023, 150–155-b. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8384384>